

О‘ЗBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOKULTUROLOGIYANING O‘RGANILISHI

The study of linguoculturology in Uzbek linguistics

Abdullayeva Mushtariybegim Murodiljon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning rivojlanishi va ahamiyatini o'rganadi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi ta'kidlanib, tilning milliy ong va tafakkur jarayonlarini aks ettirishi ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar:lingvokulturologiya, o'zbek tilshunosligi, til va madaniyat, milliy ong, tafakkur jarayonlari, sociolingvistika, metaforalar, taqqoslashlar, o'zbek muloqoti, o'zbek adabiyoti.

Annotation

This article explores the development and significance of linguoculturology within Uzbek linguistics. It highlights the intertwined nature of language and culture, emphasizing that language reflects national consciousness and thought processes.

Keywords:linguoculturology, Uzbek linguistics, language and culture, national consciousness, thought processes, sociolinguistics, metaphors, comparisons, Uzbek communication, Uzbek literature.

Аннотация

Данная статья исследует развитие и значение лингвокультурологии в узбекской лингвистике. В ней подчеркивается взаимосвязь языка и культуры, акцентируя внимание на том, что язык отражает национальное сознание и процессы мышления.

Ключевые слова:лингвокультурология, узбекская лингвистика, язык и культура, национальное сознание, процессы мышления, социолингвистика, метафоры, сравнения, узбекское общение, узбекская литература.

Lingvokulturologiya – tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda butun bir xalqning ruhiy olami, turmush tarzining aks etishi va unda mustahkamlanishini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishidir. Lingvokulturologiya xalqlarning turmush tarzi, ularning kelib chiqishini o‘rganuvchi etnolingvistika va tilning jamiyatdagi tutgan mavqeyini o‘rganuvchi sotsiolingvistika bilan bog‘langanki, tilshunos olim B.Teliya uni etnolingvistikaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydi. V.Zveginsev esa etnolingvistikani tilning madaniyat, milliy urf-odatlar, jamiyatning ijtimoiy jihatlari bilan aloqalarini o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida e‘tirof etadi. Xalq – insonlarning an‘anaviy va madaniy mushtarak jamoasi bo‘lib, ularning kelib chiqishi, tarixiy va til belgilari, madaniy tegishlilik xususiyatlari, ruhiyatidagi yaqinlik, o‘zaro bir guruhga mansublik haqidagi tasavvurlari bilan ta’riflanadi.

Milliylik tanlanmaydi, hech bir elat uni tanlolmaydi, balki meros bo‘lib o‘tadi. Insoniyat madaniyati turli milliy madaniyatlar birlashmasini anglatadi, ular shu bois ham xilma-xilki, u orqali turli millatlarning azaliy orzu-intilishlarini, ehtiyojlarini va turmush tarzini ifodalash mumkin. Milliy o‘ziga xoslik barcha jabhalarda ko‘zga tashlanib turadi: mehnat, hordiq, ovqatlanish, turli vaziyatlarda qanday so‘zlashishlarigacha. Oddiygina bir misol keltiradigan bo‘lsak, rus xalqining eng muhim belgisi – jamoaviylik bo‘lib, shu boisdan ham ruslar ma’lum jamoaga tegishlilik hissi bilan ajralib turadi, ularning munosabatlarida samimiylik va emotsianallik aks etib turadi. A.Vejbitskiyning aytishicha, rus tili ko‘proq hissiyotga diqqat qaratadi va aynan shu tilda hissiyotni farqlovchi, ularni aks ettiruvchi lug‘aviy va grammatik ifodalarning butun bir to‘plamiga ega.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya dunyo, shuningdek rus tilshunosligida eng rivojlangan sohalardan biri bo‘lib, bu fan yuzasidan juda ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan va yaratilib borilmoqda. Chunki xalqning madaniyati uning turmush tarzini, dunyoqarashini, shu xalqning butun bir olam manzarasini o‘zida aks ettiradi. Bu sohaga oid ishlarda tadqiqotchilarning olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi

masalalarga katta e'tibor qaratayotganliklarini ko'rish mumkin. Bu kabi tadqiqotlarda tilning barcha sathlari birliklari, xususan, so'z va matnning tamoman yangicha talqini va tahlili ustuvorlik qiladi. Bunda lisoniy birliklarning nafaqat til qonuniyatlari, balki jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat, milliy mentalitet kabi omillar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilishi til ilmida yangi g'oyalar, yangi ilmiy qarashlar va tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida ham shunday antroposentrik tahlil ko'rinishlarini namoyon qiluvchi tadqiqotlar yuzaga kelishi ko'paydi. Bu ishlar, asosan, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan kesishmasidan paydo bo'lgan sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalari bo'yicha bajarildi. Ushbu tadqiqotlar, garchi ularda antroposentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo'lsa-da, o'zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirilgan eng dastlabki ishlar hisoblanadi. Shuningdek, ularda tilimizning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analarimiz bilan bog'liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin. Xususan, o'zbek tilshunosligida til va madaniyat munosabatiga ilmiy jihatdan yondashuv dastlab M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlarning "Til va madaniyat" asarida kuzatiladi¹. Kitobda o'zbek tilining o'zbek madaniyati bilan bevosita bog'liqligi, o'zbek xalqi tarixidagi qora kunlar, tarixiy va madaniy obidalarimizga qilingan tazyiqlar tilga nisbatan ham amalga oshirilganligi tarixiy dalillar vositasida ko'rsatib beriladi. Shunday tadqiqotlar qatorida tilshunos S.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ularning ijtimoiy hayoti va lisoniy dunyosi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. S.Mo'minov o'zining ushbu dissertatsiyasida muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o'ziga xos urf-odatlari, ularning butun bir turmush tarzi mohiyatining asosi bo'lgan qadriyat va ming yillardan beri saqlanib kelayotgan, ajdoddan avlodga meros bo'lib o'tiladigan an'analarini hisobga olmasdan turib

¹ Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 16.

mutlaqo o'rganish, uni tahlil etish, muhokama qilish mumkin emasligini aytadi. Chunki muloqot xulqi ham milliy xarakterning uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas aloqada va bir-birini taqozo etadi².

Keyingi yillarda xalqlarning etnik madaniyatini o'rganish ancha jadallashdi. Bu butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq. Globallashuv etnomadaniyatlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Demak, til – madaniyatning ajralmas qismi va uning asosiy vositalaridan biri bo'lib, dunyoning etnik manzaralarini ifodalashda ham, uni shakllantirishda ham katta rol o'ynaydi.

Tildagi madaniy belgilarni o'rganish tilshunoslikning bugungi kunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir.

Til, madaniyat, etnos o'rtasidagi chambarchas aloqa va munosabatlar sotsiologiya va falsafadan to etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha bir-birining uzviy kesishmasini tashkil qiladi.

Til madaniyat bilan bog'liq, u madaniyatning ichida rivojlanadi. Tilshunos D.Ashurova lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalaridan biri sifatida metodologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonun-qoidalari hamda madaniyat nuqtai nazaridan ajratib olingan til birliklari bo'lgan lingvokulturemalarni tizimga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi deb qayd etib o'tgan.³

Xalqimiz madaniyatini ifodalagan juda ko'p adabiyotlar taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ygan yurtimizning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotining kecha va bugunini yoritib beruvchi ekanligi uchun ham ularni tadqiq etish, madaniyatning bir bo'lagini tadqiq etish demakdir.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati ilmiy yechimlarining puxtaligi, asosliligi bilan ajralib turadi. Bunday tadqiqotlar lingvokulturologiyaning ilmiy

²Худойберганава Д. Лингвокультуроология терминларининг қисқача изоҳли луғати: Тошкент, Турон замин зиё, 2015. 10-6.

³ Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. 2014, -№4.

jihtadan asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi singari qator masalalarga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatli. Xususan, o'zbek filologiya ilmda lingvokulturologiya sohasiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy izlanishlar namunasi sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalari hamda D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" mavzusidagi monografiyasi, shuningdek, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" ni misol keltirish mumkin⁴. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, predmet va obyekti singari qator masalalar tadqiqi o'rganilgan. Xususan, professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..."⁵ maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berilgan bo'lib, ayni shu jihatlar ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholashga asos bo'ladi. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida asosli mulohazalar bayon etilgan. Xususan, olim ayni sohaning asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki, aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik

⁴ Qarang: Ashuraliyeva Y. Hind-Yevropa tillardan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari. // "PEDAGOGS" international research journal, Volume-27, Issue-1, February – 2023. – B. 15-18.

⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo’lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o’zbek madaniyati)” demakdir. Shunday bo’lgach, nutq madaniyatining o’rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o’rganish obyekti tamoman boshqadir”⁶. Shuningdek, professor S.Mo‘minov o’zining “O’zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi⁷da o’zbek xalqiga xos bo’lgan muloqot xarakterini ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etgan bo’lib, “Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o’ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an’analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o’rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo’lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir”⁸, kabi fikrlarni bildiradi. Shu bilan birga, olim o’zining “O’xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli”⁹ maqolasida o’zbek tilidagi o’xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o’rganishning ahamiyati haqida so’z yuritib, ular milliy obrazli tafakkurni ifoda etishi ta’kidlaydi. Keyinchalik esa bu boradagi mulohazalarini “O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati” da yana-da kengroq bayon etadi¹⁰.

O’zbek tilshunosligida lingvokulturologiya sohasining vujudga kelishi va rivojlanishida tilshunos olim D.Xudoyberganovanning “Matnning antropotsentrik tadqiqi”¹¹ nomli tadqiqot ishi alohida ahamiyatga ega bo’lib, ishda lingvomadaniy birliklar hamda metaforalarning matn yaratilishidagi o’rni, o’xshatish mazmunli matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari kabi masalalar atroflicha va izchil tadqiq etilgan. Olima mazkur tadqiqot ishi orqali o’zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o’rganishning nechog’li ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan.

⁶ Ko’rsatilgan manbaa. – B. 3-16.

⁷ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент. 2000.

⁸ Ko’rsatilgan manbaa. – B. 44.

⁹ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 23-27.

¹⁰ Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.

¹¹ Худойбердиева Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: ФАН, 2013.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, til va madaniyat aloqasi tadqiqida tilda milliy ong, milliy tafakkur ifodasi muammosini ham o'rganish zarurati tug'iladi. Zero, til madaniy hodisalarni aks ettirar ekan, milliy ong va tafakkur doirasidan tashqariga chiqib keta olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати: Тошкент, Турон замин зиё, 2015.
3. Ашурова Д.У. Прспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. 2014, -№4.
4. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5.
5. Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳуққининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент. 2000.
6. Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. -№ 3.
7. Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
8. Худойбердиева Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: ФАН, 2013.